

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

***AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI***

KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI

***"KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR" KAFEDRASI
401 XTF GURUHI TALABASI***

G'APPAROV DILSHODBEKNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Pardozbop koshinlar olishda shisha chiqindilari qo'llashning
laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Ilmiy rahbari:

Kafedra mudiri:

The image shows two handwritten signatures in blue ink. The top signature is over a circular official stamp of the Faculty of Chemistry and Technology. The bottom signature is over a rectangular official stamp of the Department of Chemical Technologies. Both stamps contain the text 'IMZONI TASDIQLASH' and 'KAFEDRA BOSHCHILIGI'.

dots. Matchanov Sh.K.

dots. Babaev Z.K.

Urganch – 2012 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI KIMYO-TEXNIKA FAKULTETI

TUSHUNTIRISH XISOB - KITOB MATNI

Bitiruv ishi mavzusi: Pardobop koshinlar olishda shisha chiqindilari qo'llashning laboratoriya reglamenti

Kafedra mudiri:

Ilmiy raxbari:



dots. Babaev Z. K.

dots. Matchanov Sh. K.

MASLAXATCHILAR

1. Adabiyotlar sharxi



dots. Matchanov Sh. K.

2. Tajriba tadqiqot qismi



dots. Matchanov Sh. K.

3. Iqtisod qismi



Ischanov F. O.

Taqrizchi:



k.f.n. Polvonov X. Q.

Bitiruvchi:



G'apparov D. D.

Urganch Davlat Universiteti
Kimyo-texnika fakulteti
«Kimyoviy texnologiyalar» kafedrası
Mutahassislik «Kimyoviy texnologiya»

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri
dots. Babaev Z. K.
«12» 02 2012 y.

1. Talaba _____ G'apparov Dilshodbek Davronbekovich _____ ga

Pardozbop koshinlar olishda shisha chiqindilari qo'llashning laboratoriya tajriba reglamentini yaratish

Mavzuidagi Universitet rektorining 2012-yil 12-fevral № 14 T 2 buyrug'iga asosan bitiruv malakaviy ishi berilsin.


2. Bitiruv malakaviy ishining tamomlanish vaqti « 31 » may 2012 y.

3. Bitiruv malakaviy ishiga dastlabki ma'lumotlar: Ishlab chiqarish va maxsus amaliyotlari xisobotlaridan olinadi.

4. Tushuntirish xisob-kitob-kirish, adabiyotlar sharxi, iqtisodiy qism va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirishi shart.

5. Grafik materiallar-texnologik sxema, parametrlarning o'zaro bog'liqliklari, iqtisodiy ko'rsatkichlar va boshqalar berilishi shart.

6. Ilmiy ishidagi bo'limlar bo'yicha konsultantlar:

BO'LIMLAR	KONSULTANT	IMZO - VAQTI	
		Top. beril.	Qab. qil.
1. Adabiyotlar sharxi	<u>dots. Matchanov Sh. K.</u>		
2. Tajriba tadqiqot qismi	<u>dots. Matchanov Sh. K.</u>		
3. Iqtisod bo'limi	Ischanov F. O		

Ilmiy ish topshirig'ini olgan vaqt « 14 » yanvar 2012-yil

Раҳбари:  dots. Matchanov Sh. K.

Ilmiy ish topshirig' ni bajarishga kirishish « 25 » yanvar 2012 yil

Bitiruvchi:  G'apparov D. D.

Mundarija

I KIRISH-----	5
II Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish bo'yicha jahon adabiyotining va patentlarining qissqacha tahlili-----	9
2.1. Shishasimon pardozbop koshinlarni shisha chiqindilarini qayta ishlash asosida ishlab chiqarish texnologiyalari -----	10
2.2.Shishasimon materiallarning pishirish usullari, mineralogik tarkibi va xossalari -----	25
2.3. Shishasimon pardozbop koshinlarni qurilish sohalarida va xalq xo'jaligida qo'llash tajribalari-----	50
2.4.Adabiyotlar sharxiga xulosa -----	55
III. Ishning qisqacha mazmuni, maqsad va vazifalari.-----	57
IV Tajriba tadqiqotlar qismi -----	64
4.1.1. Tajriba o'tkazish uchun uslub tanlash va tajriba rejasi-----	65
4.1.2. Labaratoriya sharoitida pardozbop koshinlar ishlab chiqarish bo'yicha tajriba olib borish va ularning tavsiflari-----	74
4.2.1. Shishasimon pardoz mahsulotlari sifatini texnik tahlil qilsh usullari va tajriba o'tkazish tavsifi -----	78
4.2.2. Pardozbop shishasimon plitkalar olishda mahsulot sifatiga jarayon parametlari va tarkiblarining ta'siri-----	90
4.3. Labaratoriya sharoitida shisha mahsulotlari chiqindilaridan foydalanib pardozbop koshinlar olish bo'yicha yaratilgan natijalar xulosasi -----	98
4.4. Shishasimon pardozbop koshinlar olish bo'yicha sinalgan tarkiblar va izlab topilgan jarayon parametrlarini ishlab chiqarishga tadbiq qilish bo'yicha tavsiyalar-----	100
V. Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari -----	103
VI. Yakuniy xulosalar -----	108
VII. Foydalanilgan adabiyotlar.-----	123

KIRISH

Bugungi kunda , Respublikamizdagi oily o'quv yurtlarida olib borilayotgan tadbirlarnig asosiy maqsadi mutahassislar tayorlash sifatini tubdan yaxshilashdan iboratdir. Bu ishlarning jadallashtirishni asosiy quroli bo'lib ta'lim ishlab chiqarish va fanning uzviy aloqasi xizmat qiladi. Hozirning o'zidayoq O 'zbekiston iqtisodiyotida chiqindisiz hamda energiyatejamkor texnologiyalarni qo'llagan holda, kundalik va sanoat chiqindilarini qayta ishlash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. U sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda (1)

Sayyoramizdagi kundalik chiqindilarni soni kundan – kunga ortib bormoqda. Bu chiqindilarni qariyb 3.75-3.80 % ini shisha mahsulotlari chiqindilari tashkil etadi . O'zbekistonda shisha chiqindilarini qayta ishlash asosida pardozbop qurilish materiallari olish texnologiyalarini joroy etilishi, xoriydan valyuta hosobiga olib kelinayotgan shishasimon pardozbop koshinlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiribgina qolmasdan balki, bir qator ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan. Adabiy manbaalar va chet tili tajribalaridan ma'lum bo'lishicha , kundalik shushasimon mahsulotlar chiqindilarning deyarli 75-80% ini qayta ishlab, ulardan individual uy-joy qurilishi va xalq xo'jaligi uchun muhim bo'lgan shishasimon qurilish maxsulotlar olish imkoniyatlari mavjuddir. Agar O'zbekiston sharoitida shisha chiqindilarini qayta ishlagan holda , pardozbop koshinlar ishlab chiqarish texnologiyalari yo'lga qo'yilsa, ekologik toza, mexanik jihatdan mustahkam va tannarxi ancha arzon bo'lgan sifatli mahsulotlar olish mumkin.(2)

Mening „Pardozbop koshinlar olishda shisha chiqindilarini qo'llashning laboratoriya tajriba reglamenti“ mavzuidagi bitiruv malakaviy ishimni himoya qilish , bugungi kundagi asosiy vazifam hisoblanadi.Chunki 4 yil davomida olgan bilimlarimning natijasini bitiruv malakaviy ishimning himoyasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda, oziq- ovqat va og'ir sanoatning asosiy maqsadi chiqindisiz hamda energiyatejamkor texnologiyalarni qo'llashni joriy qilish hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassis sifatida bu maqsadni amalga oshirish uchun men fakultetimizda faoliyat olib borayotgan barja ustozlarimning bergan ta'lim – tarbiya va ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatgan yordamlari uchun g'oyat minnatdorman. Kelajakda shu ustozlarimdan olgan bilim va ko'nikmalarimni xalq xo'jaligining qaysi taqrmog'ida faoliyat ko'rsatishimdan qat'iy nazar umrimning oxirigacha rioya qilib borishga harakat qilaman.

Bitiruv malakaviy ishimni dastlab jahon adabiyotlari va internet ma'lumotlarini yig'ib hozirgi vaqtda shishasimon pardozbop koshinlarga bo'lgan talablarni o'rganib chiqishdan boshladim. Ma'lumotlar yig'ish paytida shuni bildimki, homashyoni eritish jarayonida shishani suyuqlanish haroratini pasaytiruvchi agent sifatida aralashmaga shixtaning 3-4% miqdorida Sulton Uvays zaxiralarida mavjud bo'lgan dala shpati minerali kiritilsa, homashyoning suyuqlanish harorati 70-75 C ga kamayishi mumkin bo'lar ekan. Bu esa o'z navbatida issiqlik energiyasini mahsulot pishirish uchun tejashdan darak beradi.

Men bitiruv malakaviy ishimni bajarish jarayonida har hil turdagi shisha chiqindilaridan foydalandim. Bu yerda men chiqindilardan foydalanganim uchun menga xomashyo taqchilligi muammosi qiyinchilik tug'dirmadi. Hali bu tur chiqindilarini qayta ishlash asosida pardozbop koshinlar olish texnologiyalari O'zbekiston sharoitida deyarli yo'lga qo'yilmagan. Uning kimyoviy tarkibini keyingi boblarda ko'rsatib o'taman.

Menga topshirilgan bitiruv malakaviy ishim mavzusi bo'lgan „Pardozbop koshinlar olishda shisha chiqindilari qo'llashning laboratoriya tajriba reglamenti “ hozirgi shaoitdagi

eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki , chet ellardan valyuta hisobiga keltirilayotgan materiallar o'rniga o'zimiz chiqindilardan hamda mahalliy homashyolarimizni qo'llagan holda, dunyo talablariga mos keluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida yuzlab ish o'rinlari ochilishi bilan birga mamlakatimizning iqtisodiy tarflama rivojlanishiga ham olib keladi.

Kelajakda malakali mutahassis bo'lib yetishishga va bu ishlarda munosib hissamni qo'shishga va'da beraman.

TANLANGAN MAVZU BO'YICHA JAHON ADABIYOTLARINING VA PATENTLARINING QISQACHA TAHLILI

II. Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish bo'yicha jahon adabiyotlarining va patentlarining qisqacha tahlili.

II.1. Shishasimon pardozbop koshinlarni shisha chiqindilarini qayta ishlash asosida ishlab chiqarish texnologiyalari .

Shishasimon pardozbop koshinlarni ishlab chiqarish va qo'llashda asosiy homashyo sifatida shisha mahsulotlari chiqindilaridan foydalanish ekologiya muammolarini hal qilish bilan bir qatorda, shishasimon qurilish materiallarini sanoati rivojlanishining yangi hamda progressiv yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shisha chiqindilaridan shishasimon plitkalar ishlab chiqarish texnologiyasining ahamiyatli tomoni shundaki, homashyolari yetarli miqdorda va tannarxi ancha arzonligi, plitka hajmining kattaligi ularni terish paytida bir muncha yengillik va qulayliklar yaratishi, suv shimuvchanligi deyarli nolga tengligi va boshqa bir qator afzalliklarga ega. Shisha plitkalarining xususiyatlari boshqa tur qoplamalar o'rnini olish istiqbollari yaratadi.

Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarishda shisha chiqindilarini qo'llash, xalq xo'jaligi va industrial uy joy qurilishida bu tur mahsulotlardan foydalanishni ke'g imkoniyatlarini ochadi, atrof- muhit ifloslanishini oldini oladi hamda mahsulotni arzonlashishiga olib keladi. Shu bilan birga mehnat sharoitlari yaxshilanadi(3)

Shisha chiqindilarini yigish va qayta ishlashni tadqiqot qilish. Keyingi yillarda, Yevropa va rivojlangan davlatlarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarish miqdori ko'payganligi sababli, ulardan chiqindi sifatida chiqadigan shisha idishlarining hajmi ortdi. Natijada atrof- muhit ifloslanishiga olib keldi. Bu muammolarni barataraf etish maqsadida 2001-2003 yillarda Rossiya, Xitoy va rivojlangan Yevropa mamlakatlarida bu chiqindilarni qayta ishlab ulardan pardozbop va qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jumladan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida shishachiqindilarini qayta ishlovchi va undan xomashyo sifatida foydalanuvchi maxsus firmalar mavjud. Avstraliyada va Vengriyada har hil shisha idishni chiqindilardan turli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu korxonalarga xomashyolarni doimiy ravishda yetkazib berish uchun ko'chalarga va chiqindixonalarga shisha idishlarni yuvuvchi maxsus konteynerlari o'rnatilgan. Statsionar holatda kelib chiqqan holda ko'p davlatlarda aholi va korxonalarni sharoitiga qarab shisha idishlarini yig'uvchi konteynerlar ishlab chiqarilgan yig'ish punktlarida shisha butilkalarini rangiga qarab maxsus konteynerlarga 10 kgdan joylashtiriladi. AQSH da shishasimon qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi zavodlar, shisha yig'uvchi punktlar bilan hamkorlikda ish olib borishadi.

Chet davlatlarda shisha idishlarini 2 usulda maydalanadi.

-Ho'l usul. Bu usulda shisha changib, massasi kamaymasligi uchun unga shixtaning 25-30% miqdorda suv yoki maxsus suyuqlik qo'shib, so'ngra maydalanadi.

-Quruq usul. Bu usulga ko'ra , saralangan idishlar maxsus valli yoki konussimon maydalagichlarda maydalanadi. Bu maydalagichlarni F.I.K. i bir muncha ko'p hisoblanadi.

Sanoatda asosan, quruq usulda shisha chiqindilarini aydalash jarayonlari ko'proq uchraydi.


Shishalarni qayta ishlashda asosan , transformator, elak maydalagich, havoli va magnitli

separatorlardan keng foydalaniladi. (4)

Shuni aytib o'tish kerakki, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 60 %, Fransiya 42%, Shvetsariya va Belgiya 50 %, Niderlandiya 55% , Germaniya va Rossiya 68% ga yaqin shishasimon chiqindilarni qayta ishlab, ulardan pardobop plitkalar , devorbop qoplamalar, va turli xil shisha maxsulotlari olinadi. Faqatgina , bu ko'rsatkichlar Irlandiya va Italiya 7-11% ni tashkil etadi.

Shvetsariyaning „ Vetropark “ korxonasi sutkasiga 200 tonna shisha chiqindilarni qayta ishlab , ulardan turli pardozi va qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Bunda shixtaning 90-95% ini shisha chiqindilari (tozalangan) , qolgan 5-10%ini turli maxsulot tarkibini va xossalarni mustahkamlovchi hamda rang beruvchi qo'shimchalar tashkil etadi.

Shishasimon chiqindilardan tayyorlangan shixtaga termik ishlov berishda sanoatda asosan, tunelli pechlardan foydalaniladi. Tunelli pechlarda shixtaning granulalari maydalik darajasiga qarab 750 C dan 950 C gacha 20-30 daqiqa vaqt davomida termik ishlov beriladi. Bu pechlarda boradigan jarayonlarni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin;



Tunelli pech (ko'ndalang kesimi).

- 1 - gorelkalarga havo yuborish kanallari;
- 2 - gorelkalar;
- 3 - vagonetkalar mahsulotlar bilan;
- 4 - qumli devor;
- 5 - havo o'tkazgich.

Tunelli pechlar maxsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab quyidagicha kattalikda bo'lishi mumkin; 20x4x4, 25x4x4, 30x5x4, 28x5x4, 40x6x4, 35x7x4 va boshqa o'lchamlar. Bu tur pechlar asosan yer ostiga qurilishiga mo'ljallangan bo'lib, uning foydali ish ko'fsienti yuqori hisoblanadi. Tunelli pechlar shishasimon pardozbop koshinlar, g'ishtlar, olovbardosh beton mahsulotlari, oziq- ovqat sanoati mahsulotlari (pastroq haroratlarda) va boshqa qiyin suyuqlanuvchi hom ashyolarga termik ishlov berish natijasida olinadigan mahsulotlar sanoatda keng qo'llaniladi. Bu pechlar mahsulotga 300-400 C gacha termik ishlov berish qudratiga egadir. Tunelli pechning tuzilishiga to'xtaladigan bo'lsak , u qizdirish, kuydirish, sovitish, zonalaridan iborat bo'lib , unda homashyo dastlab qizdirish zonasida qizdiriladi va harorati oshirilgan kuydirish zonasiga o'tadi. So'ngra pishgan mahsulot sovitish zonasiga yuboriladi va u yerda mo'tadil sovitiladi. Pechlarga homashyolar vagonetkalariga joylangan holda kirgiziladi. Pechning barcha devorlari 1.5-2 mgacha qumli devor bilan o'ralgan bo'ladi. Talab qilingan haroratgacha ko'tarishda pech tabiiy gaz yoki elektr energiyasi yordamida amalga oshiriladi(6).

Shishasimon pardozbop qoplamalar polivinilxlorid plitkalardan o'zining 8 mm lik qalinligi bilan farq qilsada, o'lchamlari mos keladi. Ularning yuza tomoni tarkibiga rang beruvchi komponentlar qo'shilgan yoki qo'shilmaganligiga qarab yaltiraydigan yoki yaltiramaydigan bo'ladi. Ko'pincha , shisha mahsulotlariga bunday xossalarni qo'rg'oshinli birikmalar (PbO , $PbSO_4$) beradi(7)

Shishasimon plitkalarining orqa tomonida 2mmlik qoyachalari bo'ladi. Qaysiki u devor va boshqa tutqichli betonlarga terilganda mustahkam yopishishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu xususiyati shishasimon plitkalarining yana bir muxim hossalariidan biri hisoblanadi.

Shishasimon pardozbop koshinlar tashqi ko'rinishining yaltiroqligi va nur qaytarish xususiyati bilan keramik va boshqa plitkalardan ajralib turadi. Shishasimon plitkalr bilan qoplash yetarli darajada tejamla hisoblanadi. Bunga , shisha va keramik plitkalarni taqqoslash orqali ishonch hosil qilish mumkin. Shishasimon qoplamalarni o'lchami keramik qoplamalarning o'lchamidan katta bo'lgani sababli, shisha qoplamalari orqali qoplash birmuncha oson hisoblanadi. Katta o'lchamli plitkalar (qoplamalar) uchun devorga yoki qoplanadigan joyga oldindan yog'och tiqinlar montaj qilinadi va qoplamalar ularga burama mixlar yordamida yopishtiriladi. Agarda shisha qoplamalari butunlay suv o'tkazmasligi (basseyin va boshqa suv saqlaydigan hovuzlar uchun) talab qilinsa , u holda , qoplamalar polimer siment bilan yopishtiriladi. Katta o'lchamda (300x500 ,300x200, 450x300) gi qoplamalarni terish uchun plastik kleydan foydalanish , segmentli yoki aralash qorishmaga qaraganda samarali hisoblanadi(8).

Shishasimon pardozbop qoplamalalarni parmalash yoki silliqlab qirqish paytida dastlab parmalanadigan yoki qirqiladigan joyga skippidar yoki kerasin tomizilib, so'ngra maxsus qirquvchi apparatda bajariladi. Plitkalarni qirqish davomida plitka burchaklari bir oz tekislanadi. Bu esa o'z navbatida, qoplamalarni mexanik jihatdan mustahkamligini yanada oshirishga xizmat qiladi va uni sinishdan saqlaydi. S

Shishasimon chiqindilarga termik ishlov berish paytida suyuqlanirish jarayonini shixta tarkibiga suyuqlantiruvchi qo'shimchalarni qo'shishdan tashqari shixta granulalarini maydalik darajasini oshirish orqali erish tezligini oshirish mumkin. Ya'ni shixta granulalarining o'lchamlari qancha mayda bo'lsa, shixtani eritish uchun shuncha kam energiya sarf bo'ladi. Pardozbop koshinlar ishlab chiqarishda shixta donachalari o'lchamlarining maydaligini shixtaning erish tempraturasiga ta'sirini quyidagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkun:

Bundan ko'rinib turibdiki, shixta donachalarining o'lchami 0.5mm bo'lgan namunalarning

suyuqlanish harorati 750 C dan oshmaydi. Bu esa yanada arzonroq mahsulot ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarishda shixta granulalarining o'lchamlari mahsulotning tayyor bo'lish vaqtida katta ta'sir ko'rsatadi. Pardozbop shishasimon koshinlar ishlab chiqarishda mahsulot tayyor bo'lish vaqtiga shixta donachalarining maydalik darajasini ta'sirini quyidagi diagrammadan ko'rishimiz mumkin:

Bundan ko'rinib turibdiki, shixta donachalarining o'lchamlari 0.5mm ga intilgani sari ularning suyuqlanish temperaturalarini tobora pasayib boradi. Bundan , sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoniyati tug'iladi(9)

Shishasimon pardozbop koshinlarni tadqiqot qilish

Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish texnologiyasi amaliy asoslarini yaratish hozirga kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shishasimon pardozbop plitkalar (koshinlar) quyidagi xossalarga ega bo'lishlari lozim:

- tayyorlangandan keyin yoki pishirishdan keyin hosil bo'lgan tayyor mahsulot siqilishda mustahkamlikka ega bo'lishi shart;
- olingan mahsulotlar yuqori va past haroratlarda o'z mustahkamligini saqlab qolishi lozim;
- shishasimon mahsulotlarni asosiy xossalaridan biri bo'lgan nur sindirish ko'rsatkichi yuqori o'lishi lozim;
- shishasimon plitkalar quyosh nuri va doimiy yorug'lik ta'sirida o'z shaklini o'zgartirmasligi kerak;
- olingan tayyor mahsulot GOST standartlari talablarida ko'rsatilgan o'lchamlarda katta yoki kichik bo'lmasligi (yo'l qo'yiladigan xatolik 1-2 mm) zarur;


Plitkalarining mexanik mustahkamligi 45 Mpa dan kam bo'lmasligi past , zarblarga chidamsiz , tezda yaroqsiz holga kelib qoluvchi sifatli mahsulotlar hisoblanadi

Shishasimon plitkalarining yuqori va past temperaturalarini chidamliligi (temperaturaga turg'unligi) pardozbop koshinlar sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Shunga ko'ra , plitkalar -35-40C sovuqdan 70-80 C gacha issiq haroratlarda mexanik mustahkamligi barqaror hisoblanadi. Pardozbop koshinlardan belgilangan haroratdan yuqorida yoki pastda doimiy foydalanish zarblarga chidamliligini kamayishi va o'z shaklini o'zgartirishi tomon to'g'ri chiziqli o'zgaradi.

Shishasimon mahsulotlarning muhim xossalaridan biri bo'lgan, nur sindirish ko'rsatkichining yuqori bo'lishi mahsulotning ko'rinishi va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, shishasimon pardozbop koshinlarning optimal nur sindirish ko'rsatkichining yuqori bo'lishi mahsulotning ko'rinishi va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra , shishasimon pardozbop koshinlarning optimal nur sindirish ko'rsatkichi 89% ga teng deb qabul qilingan. Shisha plitkalari bezak materiallari bo'lgani uchun, mahsulotlar bu xossalarni yuqori bo'lishi uning quyosh nuri yoki yorug'lik ta'sirida „ yonishi“ yoki o'zgacha jilo berib turishiga xizmat qiladi(10)

Shishasimon qurilish materiallari yillar davomida quyosh nuri yoki doimiy yorug'lik ta'sirida o'z shaklini o'zgartirib, qiyshayib, egilib, „to'lqin“ hosil qiladi. Bunday bo'lishiga sabab, shixta tarkibidagi mexanik mustahkamlikni oshiruvchi qo'shmchalarning kamligidir. Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlikni oshiruvchi

maqsadida to'ldiruvchilar sifatida shixtaning 2-3 % miqdorda Al_2O_3 (dala shpati holida) va MgO (dalomid – $\text{MgCO}_3 \cdot \text{XCaCO}_3$) lardan foydalaniladi. Agarda , bu to'ldiruvchilarni belgilangan miqdordan ko'proq qo'shilishi (shisha massasining suyuqlanish haroratini oshishiga olib keladi) yoki ozroq miqdorda kiritilishi (olingan mahsulotlarni siqilishda va egilishda mexanik mustahkamligi darajasini kamayishiga olib keladi) tayyor mahsulotni mexanik mustahkamligiga, suyuqlanish tempraturasiga va eng asosiysi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin(11)



II.2. Shishasimon materiallarning pishirish usullari, mineralogik tarkibi va xossalari

Hozirgi kunda, shishasimon materiallarni pishirishning bir necha xil usullari mavjud bo'lib bu usullari uchta klassi- fikatsiyadan iboratdir:

- kimyoviy
- issiqlik
- gidravlik

Shisha pishirish vaqtini tezlashtirish uchun , shisha pishirish pechlarining konstruksiyasi qayta jihozlash juda katta ahamiyatga egadir.

Kimyoviy usulda jadvashtirish usuli;

Kimyoviy usulda jadvashtirish texnologik usulda shixtani tayyorlash va shisha pishirishdan iboratdir.

Shixta tayyorlash bosqichi:shisha pishirishda, pishirish tezli gini oshiradigan va temperaturasini pasaytiruvchi suyuqlan-tiruvchi kamponentlar hamda shixta tarkibidagi ba'zi bir kamponentlarni ma'lum ulushlarini yanada faol moddalarga almashtirish.

Ftoritlar-asosan pishirish tezligini oshiruvchi tezlashti- ruvchilar sifatida qo'llaniladi.Bu tezlashtiruvchilar, maxsu lot tayyor bo'lish vaqtini 15-18%gacha tezlashtiradi. Bun- dan tashqari shixtani suyuqlanish xaroratini 150-160 °C ga pasaytiradi[12].

Donalashtirish texnologiyasida kerakli kattalikda bo'l gan diametri 1-8mm donalarga erishiladi.Bunda biriktiruv chi sifatida suyuq shisha, mazut va boshqa birikmalardan

foydalaniladi. Bu jarayoda tarelkasimon, barabanli va boshqa donalashtirish qurilmalari qo'llaniladi.

Tayyor shixta donalashtirish qurilmalariga tushadi va chu qur sovitilgandan keyin kerakli kattalikdagi donaga ega bo'lish uhun qo'shimcha quritiladi.

Shixta donalari ishlatilishi NaOH bilan ishlatilsa, shisha massa quvvatini 20-30%ga oshiradi va shu bilan birga yoqil g'i sarfini bir muncha kamaytirib, maxsulot tannarxini bir muncha arzonlashtirishga olib keladi. Bu usul Respublika mizning ko'pgina shishasimon maxsulotlar ishlab chiqarish zavodlarida keng qo'llanilmoqda. Donador shixtaning afzal ligi shundan iboratki, qo'shimcha jixozlar ishlatilishiga va ortiqcha sarfga o'rin qoldirmaydi hamda bu usul yordamida ishlab chiqarilgan shishasimon pardozbop koshinlar tahsqi ko'rinishi va sifati bir muncha yuqoriligi bilan boshqa usul da ishlab chiqariladigan qoplamalardan ajralib turadi.

Yuqori dipresslikga, kimyoviy toza va bir xil bo'lgan gidrotermal shixtani ishlatilishi. Bu usul Erevandagi "Kaliy va silikat" ilmiy tekshirish institutining professor olimlari ishlab chiqilgan va ishlab chiqarishga tadbiq etilgan. Bu usulning tenalogik afzalligi: maydalangan shixta kuchsiz ishqoriy eritmada 180°C issiqlikda avtoklavda ikki qayta ishlaniladi[13].

Termik usulda jadallashtirish .

Shisha pishirishda issiqlik va massalar almashinishi shisha pishirish pechlarida jadallashtirish katta ahamiyatga egadir. Issiqlikni 1200°C dan 1420°C gacha ko'tarsak, shishaning suyuqlanishi va xosil bo'lishi 5 martaga kamayadi va pishi rish pechidagi shisha massasini gamogenizatsiyasi tempera turasini tezligiga bog'liqdir. Bunda yoqilg'i sarfini oshirish orqali issiqlikni ko'tarishga erishiladi.

Gidrodinamik jadallashtirish usuli. Bunday usul shisha massani siqilgan havo yoki boshqa gaz bilan bilan keskin aralashtirgichga asoslangan. Bu jarayon hajmi uncha katta bo'lmagan aralashtirgich va o'tga chidamli materialadan ishlangan pechlarga mo'ljallangan (14)

Shishasimon mahsulotlar ishlab chiqarishda shixta tarkibiga kiradigan homashyolar qo'llanishiga qarab 2 gurihga bo'linadi:

- Asosiy
- Qo'shimcha

Asosiy guruh homashyolari bu shixta tayorlash uchun ishlatiladigan sun'iy va tabiiy komponentlar (minerallar) bo'lib , shisha massaga kislotali, ishqoriy va ishqoriy yer metallari oksidlari olib kiruvchi asosiy komponentlardir.

Qo'shimcha guruh homashyolari bu shisha pishirish davomida qo'shiluvchi moddalar bo'lib, shisha mahsulot tavsifni o'zgartiruvchi va shisha pishirish jarayonini tezlashtirish uchun ishlatiladi. Bu tur homashyolar ko'pincha to'ldirgichlar deyiladi.

Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarishda asosiy homashyo hisoblangan shisha chiqindilarini mineralogik tarkiblarini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

Shixtaning mineralogik tarkibiga kiruvchi xomashyolarning tavsifi.

1. Kremniy(IV) oksid- SiO_2 , erish temperaturasi $t_{\text{suy}} = 1713 \text{ C}$, shishaning asosiy tarkibini tashkil qiluvchi komponentlar hisoblanadi. Toza kvars shisha yuqori haroratda eriydi. Unga ishqorning qo'shilishi bilan shixta komponentining yechish temperaturasi pasayadi va kremniyning yopishqoqligini oshiradi. Si O_2 asosan shixta tarkibiga kvars qumi (tarkibida 97.3-98.5%gacha SiO_2 saqlaydi) ko'rinishida kiradi.
2. Alyuminiy oksid – Al_2O_3 , dala shpati, erish darajasi $t_{\text{suy}} = 2050\text{C}$ bo'lgani uchun shishani pishirish tezligini pasaytiradi. Al_2O_3 ni keragidan ortiq bo'lishi shishani yomon pishishga, keragidan kam miqdorda bo'lishi shishani yomon pishishga , keragidan ham miqdorda bo'lishi esa, shishaning mexanik mustahkamligini kamayishiga sabab bo'ladi/
3. Natriy oksidi – Na_2O , erish temperaturasi $t_{\text{suy}} = 852\text{C}$ ga tengdir. Na_2O ni shixta tarkibida ko'p bo'lishi shisha hosil bo'lish tezligini oshiradi va shishani yopishqoqligi hamda quyuqlanish tezligini kamaytiradi. Natriy oksid asosan , shixta tarkibiga soda ($\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$) va Natriy sulfat (Na_2SO_4) holida kiritiladi.
4. Kalsiy oksidi – CaO , suyuqlanish temperaturasi $t_{\text{suy}} = 700\text{C}$ bo'lib , shisha massasini pishirish jarayonini va kimyoviy barqarorligini oshiradi .Ca O yuqori issiqlik darajasida yopishqoqlikni, past issiqlik darajasida yopishqoqlikni oshirish xususiyatiga ega .U shixta tarkibiga ohaktosh (CaCO_3) yoki dolomit ($\text{CaCO}_3 \cdot \text{XMgCO}_3$) holida kiritiladi.
5. Magniy oksidi – MgO , suyuqlanish temperaturasi $t_{\text{suy}} = 700\text{C}$ ga teng. U dolomid bilan birga shixtaga qo'shib , kimyoviy barqarorlikni ko'taradi va shixtaga qo'shib , kimyoviy barqarorlikni ko'taradi va mexanik qattiqligini oshiradi.

6.Natriy sulfat – Na_2SO_4 , suyuqlanish temperaturasi $t_{\text{suy}} = 88.4\text{C}$ ga teng bo'lib , teng bo'lib, bu ham ashyo ham ba'zi shisha ishlab chiqarish zavodlarida shixta tarkibiga Na_2O ni kiritish uchun soda (Na_2CO_3) o'rniga qo'llaniladi. Na_2O ga parchalanish darajasi $t_p = 1200\text{C}$ ni tashkil etadi

7.Ko'mir .Asosan , bu homashyo sulfatlarni bo'lishini tezlashtirish uchun qo'shiladi. Ko'mirni keragidan ortiqcha miqdorda qo'shish shisha massasini rangi o'zgarishiga , belgilangan miqdordan ham qo'shilishi esa , shisha massa yuzasini erimagan sulfat qoldiqlari bilan qopashiga olib keladi(15).

Kristal jismlar t'g'ri geometrik shakldagi panjaraga egadir. Bu panjaralarni atom va ion zarrachalari hosil qiladi. Shisha holatidagi moddalarda esa bunday panjara mavjud emas. Shisha hosil qiluvchi zarrachalar faqat bir-biriga yaqin joylashganda geometrik tog'ri joylashadilar, bir –biridan uzoqlashganda esa bu tartib buziladi va shisha strukturasini o'zgarib sifatsiz mahsulot hosil bo'ladi.

Sovitishda shishani yopishqoqligi asta-sekin ortib boradi va qattiq modda xususiyatiga ega bo'ladi. Shisha massani suyuq holatdagi suyuq holatdan shisha holatga o'tish jarayon qaytmas jarayon bo'lishi lozim.

Kristal modda ma'lum bir yechish temperaturasiga egadirlar. Shisha esa , aniq bir yechish yo'qotish temperaturasiga ega emas. U kena temperatura diapazonida yumshay boshlaydi va shu holatda qotish xususiyatiga egadir. (16).

Odatda industrial qurilish va xalq xo'jaligida ko'p ishlatiladigan shishasimon materiallarni taxminiy formulasini tubandagicha yozish mumkin: $\text{Na}_2\text{O} \cdot \text{CaO} \cdot 6 \text{SiO}_2$. Shishasimon mahsulotlarni sorti va rangini unga qo'shiladigan komponentlar orqali belgilash

mumkin. Masalan , homashyo tarkibidagi Fe_2O_3 ni meyoridan ko'p miqdorda bo'lishi shisha rangini yashil rangda bo'lishini ta'minlayda.

Temir oksidi Fe_2O_3 ning homashyodagi miqdori quyidagi shishalarda tubandagicha (foiz hisobida) bo'lishi kerak:

- 0.01 %gacha - optik shishada
- 0.01-0.05 % -list shishada
- 0.05-0.1%- silliq shisha
- 0.1-0.2% oynak shishada
- 1%dan ko'p- qoramtir butilka shishada bo'ladi.

Shixta tarkibiga potash (K_2CO_3) qo'shilishi bilan shishaning yaxshi sorti bo'lgan tinir va yaltiroq kaliyli shishasimon mahsulotlar olinadi . shixta tarkibiga qo'rg'oshin oksidi(PbO) kiritish bilan nur sindirish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan sifatli shishasimon mahsulotlar olishga erishiladi(18).

Shisha massani tiniqlantiruvchi moddalar sifatiga natriy sulfat(Na_2SO_4) , natriy xloridi (NaCl) , mishyak oksidi (As_2O_3) , natriy selitrasi (NaNO_3) , ftorli va ammoniyli tuzlar shiztaga qo'shiladi.

Agar homashyolar tarkibida temir(III) oksidi bo'lsa, shisha rangi havorang –yashil tusda , bo'ladi . Bunday tabiiy ranglarning bo'lishi rangsiz shishasimon mahsulotlar olish uchun maqsadga muvofiq emas.

Shisha massalarini tabiiy ranglarini bartaraf etish uchun shishani rangsizlantirishning 2 ta usuli mavjud

- fizik usuli
- kimyoviy usuli

Fizik rangsizlantirish usulidan shisha massaga qo'shish uchun qo'shimcha modda tanlanadi va dozalab qo'shiladi. Bunda keraksiz rang qo'shimcha modda bilan yutiladi. Bunday qo'shimchalarga quyidagi moddalar kiradi:

1. Selen- Se. Uning erish temperaturasi $t_{\text{suy}} -217^\circ\text{C}$ ga teng bo'lib 688°C haroratda massadan uchib chiqadi. Uni elementar holatda yoki Natriy selenid (Na_2Se) tuzi holida qo'shiladi. Amalda kobalt oksidining havorang tusi elementar qo'shilgandagi yengil sariq-binafsha rangini kompensatsiyalaydi va natijada aytarli darajada rangsiz shisha massasi olinadi

2. Marganes dioksidi – MnO_2 . Bu modda tabiatda pirolyuzit minerali holida uchraydi . Shixta tarkibiga kiritilib pishirilganda bu modda parchalanib , marganes (II) oksid (MnO) va kislorod hosil qiladi. Ajralgan kislorod atmosferaga chiqarib yuboriladi. MnO esa , massaga qizil-siyohrang berib, uni fizik rangsizlantiradi , kislorod esa massani kimyoviy rangsizlantiradi .

3. Neodim oksidi – Nd_2O_3 . Bu modda shisha massani to'liq binafsha rangga keltiradi va temir birikmalari (FeO va Fe_2O_3) ni yashil rangini yaxshi kompensatsiyalaydi va shisha rangsizlanadi.

Kimyoviy rangsizlantiruvchi moddalar sifatida kuchli oksidlovchilar : selitra, mishyak(III) oksidi (As_2O_3) , natriy sulfat (Na_2SO_4) , surma oksidi (Sb_2O_3) va boshqalar qo'llaniladi. Yana bir muhim rangsizlantiruvchi sifatida ftor birikmalaridan keng foydalaniladi (19).

Rangli shishasimon mahsulotlar olish uchun har hil bo'yovchi moddalardan foydalaniladi . Ular 2 hil bo'ladi

Molekulyar bo'yoqlar

Kolloid bo'yoqlar \

Molekulyar bo'yoqlar – metall birikmalari shaklida bo'lib, shisha pishirish jarayonida shisha massasida erib ketadi va massani turli xil ranglarga bo'yaydi. Molekulyar bo'yoqlar sifatida: kobalt, nikel, marganes, mis, xrom, temir, uran, nodir yer metallari birikmalari qo'llanadi. Bu birikmalarni shisha massasiga qanday ranglarni berishni tubandagicha ko'rishimiz mumkin:

- kobalt (II) oksid (CaO) – to'q ko'k rang
- kobalt (III) oksid (Co_2O_3) – havorang ko'k
- temir (III) oksid (FeO) – havorang yashil
- temir (III) oksid (Fe_2O_3) – sargish yashil
- nikel birikmalari – qizil-siyohrang
- marganes (II) oksid (MnO) – och sariq
- marganes (IV) oksid (MnO_2) – binafsharang
- uran birikmalari – qo'ng'ir, qora sariq
- kaliy oksid (K_2O) – binafsha
- mis birikmalari – ko'k, havorang
- xrom birikmalari – yashil rang
- kadmiy birikmalari – tiniq sariq rang


Kolloidga shishada kolloid dispers holatda qoluvchi moddalar kiradi. Bunda qo'shimcha ranglar olish uchun massaga oltin, mis, selen, surma kabi boshqa metallar birikmalari qo'shib ikkilamchi pishirish talaab etiladi. Unda tillarang, mis, selenli, va surma rubinlari olinadi.

Rangli shishasimon mahsulotlar ishlab chiqarishdan tashqari tiniq bo'lmagan, oq-sutsimon shisha materiallari ham olish mumkin. Buning uchun, shixtaga so'ndiruvchilar sifatida: kaliy fosfat, qalay oksidi, talk, kriolit, surma va fluor birtikmalari qo'shiladi. Bu jarayonda, ular shisha massasi eriyotganda unga erib o'tadi va qotayotganda esa, mayda kristallchalar shaklida ajralib chiqadi. Fluor birikmalaridan o'ymakorlik va kimyoviy silliqlik berish imkoniyati yuqori bo'lgan shisha mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida keng qo'llaniladi (20)

Oxirgi yillarda shisha mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida ko'p turdagi rangli shishalar va turli hil nurlardan himoyalovchi shishalar ishlab chiqarish ko'lami tobora kengaymoqda. Bunday mahsulotlar ishlab chiqarishda eng samarali usullardan biri yuqori metall – oksidli kompozitsiyalarni qo'llash metodidir. Bu usul, olingan rangsiz shisha mahsulotlari yuzalariga metall – oksidli pardalarni 1-2mm qalinlikda to'shab qayta termik ishlov berish yordamida qoplashga asoslangan. Metall – oksidli qoplamalarning tarkibi va massa nisbatlari quyidagi jadvalda berilgan:

Bu tajribalarni o'tkazish natijasida quyidagi qoplamalarni qo'llashdan turli hil ranglardagi shishalar olinadi. Masalan, temir-surmali qoplamalarni shishaga sariq, temir-titanli qoplamalar jigarrang, temir-qalayli qoplamalar shishaga pushti ranglarni beradi.

Metall oksidli qoplamalarning yutilish jarayoni o'zgaruvchanligini 0.1-4.0 mm oraliqda IKS -14 spektrometri yordamida aniqlanadi va bu jarayonni quyidagi rasmda aniqlash mumkin.



Bunda ,

_____ nur qaytarish koifitsenti;

----- yuzalarga o'rtacha birikish ko'rsatkichi ;

--0---0---umumiy yutilishi ;(21)

Metall oksidli pardalar asosida qoplangan shishasimon maxsulotlar hammalarini spektrometrik xossalari va yorug'lik qaytaruvchanlik xossalari $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times 5\text{Cl}_3$ tarkibli temir surmali metal oksidli pardalar bilan qoplangan mahsulotlarga deyarli taalluqli emas. Bu xossalar faqatgina massa nisbatlari 1 va 1.5 bo'lgan 2-3 tarkiblarga xosdir. Shunga ko'ra bu tarkiblarning ishlatib olingan namunalarning yorug'lik qaytaruvchanlik ko'rsatkichi 70-75%ga teng. $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times \text{SnCl}_4$ tarkibli temir qalayli metal oksidli pardalar bilan qoplangan namunalardan massa nisbati past bo'lgan tarkibli kompozitsiyaning spektrometrik va nur qaytaruvchanlik xossalari nisbatan kichikroq lekin massa nisbati 1.5 va 3 bo'lgan 7-8 tarkibli kompozitsiyaning turishi 70-78% yorug'likdan himoya qilish koifitsenti 30-32% ga teng $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times \text{TiCl}_4$ tarkibli temir titanli metal oksidli qoplamalarni past ko'rsatkichlari bu yuzalarga rang yutiluvchi 30% va birikish xossasidir. Yorug'lik qaytarish koifitsenti esa 50-60% ga tengdir.

Metal oksidli qoplamalarning spektrometrik va yorug'lik eng yuqori bo'lgan namunalarning massa nisbatlari 1.5 va 3,7,10 tarkiblarga to'g'ri kelishi isbotlandi. Bunday qoplamalarni qayta ishlash vaqti 2.6 va 10 sek, qoplovchi aralashmani sarflanish vaqti va miqdori 3-5 ml/sek gat eng/

Shunday qilib, shishasimon materiallarning rangi bilan bog'liq xossalarni o'zgartirish va metall-oksidli pardalar shishayuzalariga qoplash plitkalarni qalinlik o'lchamlarini oshishga olib keladi. $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times 5\text{PbCl}_3$, $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times \text{SnCl}_4 \times 5\text{H}_2\text{O}$ va $\text{FeCl}_3 \times 6\text{H}_2\text{O} \times \text{TiCl}_4$ tarkibli metall - oksidli pardalarni shisha yuzalariga qoplashda 6 sekund vaqt mobaynida qayta ishlangan

komponentlarni 1.5 massa nisbatdagi 3.-7.-7.-,10- tarkiblarini eng optimal deb qaraladi.

Bu usulda olingan shishasimon materiallar ko'plab sohalarida , jumladan, individual uy-joy qurilishda , bezak materiallari sifatida , dizayn sohalarida , transport va mashinasozlik sohalarida hamda ko'plab xalq xo'jaligi sohalarida keng qo'llaniladi (23).

Shishasimon pardozbop koshinlar ishlab chiqarish jarayonida mexanik mustahkamligi va zichligi yuqori bo'lgan sifatli shisha plitkalar ishlab chiqarish bu sohaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shishasimon mahsulotlarning bunday xossalari va xususiyatlarini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

--Shishasimon plitkalr ishlab chiqarishda tarkibga turli mustahkamlik va qattiqlikni oshiruvchi to'ldirgichlarni qo'shish.

--Shisha mahsulotlari mahsulotlari olishda shixta tarkibidagi kvarts qumi (SiO_2) ni miqdorini 1%gacha boshqa oksidlarga almashtirib , pishirish va shisha massasi olish.

--shixta massasi tarkibiga mustahkamlikni oshiruvchi moddalar sifatida: ortiqcha Al_2O_3 , fosforli va fluorli (ko'pincha ,plavik shpati – CaF_2 ishlatiladi) birikmalari qo'llaniladi(24).

Shishasimon qurilish materiallarini mehanik mustahkamligini oshirishni qo'shimcha to'ldirgichlar kiritish usulida metall oksidlari shixta tarkibidagi 1% li SiO_2 ni o'rniga almashtiriladi.

To'ldirgichlar sifatida : Al_2O_3 , B_2O_3 , Fe_2O_3 , MgO , CaO , BaO , ZnO , PbO , Na_2O , K_2O lardan foydalaniladi. Bu oksidlarni shixta tarkibidagi miqdorini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Odatdagi shisha mahsulotlarini tarkibi : SiO_2 -72.5%, Al_2O_3 -1,2% , MgO -1.5%, CaO -9.5%, Na_2O -15.3%, uning zichligi $\rho = 2.481 \text{ g/sm}^3$ ga teng. Tarkibi almashtirilganda : SiO_2 -71% , Al_2O_3 -1.5%, MgO ,-1.7%, CaO -9.8%, Na_2O -16,0 % , uning zichligi esa $\rho = 2.659 \text{ g/sm}^3$ ga teng. Bundan xulosa shuki, bu usul yordamida aytarli darajada mustahkam shisha mahsulotlari olish mumkin(25).


Urganch Davlat Universiteti Kimyoviy-texnologiya yo'nalishi bo'yicha professor o'qituvchilar vaz ilmiy-tadqiqotchilarning shishasimon qurilish materiallari ishlab chiqarish ustida olib borilgan tajribalari natijasida shixta tarkibiga Respublikamizdagi Sulton Uvays zaxiralari dala shpatlarini optimal miqdorda kiritilishi tufayli olingan mahsulotlarning mustahkamligi, qattiqligi, nur sindirish ko'rsatkichi va bir qator xosalarini yaxshilanishi ma'lum bo'ldi. Eng asosiysi bu homashyolarni qo'llanilishi mahsulot tannarxi arzonlashishiga olib keladi.

Geologik qidiruv ishlari bergan ma'lumotlarga ko'ra , O'zbekiston hududida ko'p sonli kvarts –dala shpati konlari topilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi batafsil o'rganilmagan. Shunday konlardan biri Sulton Uvays dala shpati koni bo'lib, uning xazinasida 10mln. Tonna atrofida homashyo zaxiralari mavjud. Ushbu homashyo mnineralogik bir jinsli va tarkibida bir oz (5-7%) kvarts borligi ma'lum bo'lgan. Tashqi ko'rinishi burchakli 10x10 dan 25x 50 mm kattalikdagi qisqa prizmalar ko'rinishida sarg'ish kulrang tusda bo'ladi. Nur sindirish ko'rsatkichlari

dala shpati minerallari guruhiga hos , ya'ni $N_p=1.528=0.03$; $N_p=1.514=0.03$ va 5-6 % kvars dan tashkil topgan (26).


O'tkazilgan kimyoviy analizlar dastlabki homashyoning quyidagi ingerediyentlardan tashkil topganligini ko'tsatadi : SiO_2 - 68.57% , TiO_2 -0.01% , Al_2O_3 -16.81% ; Fe_2O_3 -0.07% ; FeO -0.12%; MgO -0.3% ; MnO -0.01%; CaO -0.55%; Na_2O -2.92%; K_2O -9098; P_2O_5 -0.15% va boshqa qo'shimchalar 0.51%.

Rentgenografik tekshirishlar orqali ushbu homashyolar asosan adulyar (0.420; 0.400; 0.380; 0.360; 0.350; 0.330; 0.320; 0.300; 0.295; 0.275; 0.253; va 0.241) dan tashkil topganligi aniqlanadi . Dala shpati tarkibida K_2O VA Na_2O larning 3:5 nisbatda bo'ladi 1523—1573° k intervalda issiqlik bilan ishlov berilganda egiluvchan shisha massasi hosil bo'ladi. Dastlabki xomashyoning difraktogrammasi quyidagi rasmda keltirilgan:



Infraqizil spektrlarida homashyo namunasi $700-800\text{cm}^{-1}$ uzunlikdagi to'lqin sohasida ikki qorishgan chiziqlar pastv haroratdagi $\text{K}(\text{Al}_2\text{SiO}_3)$ mikroklinning triklin firmasining formasining o'rta intensivligini belgilaydi/

Sulton Uvays konining dala shpati homashyosining IK-spektorlarini quyidagi rasmda ko'rib o'tish mumkin:



Shu vaqtning o'zida mikroklinning keskin bo'lingan yengil singan cho'qqisi bunday dala va shpatlari strukturasi alyuminiy va kremniyning tartibli bo'lingan atomlari mavjudligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Sulton Uvays zaxiralari dala shpatlarini shixta tarkibiga kiritilishi arzon va yuqori sifatli shishasimon mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi(27).

II. 3. Shishasimon pardobop koshinlarni xalq xo'jaligi sohasida qo'llash tajribalari

Oxirgi yillarda, shishasimon qurilish materiallari sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va tajribalar natijasida zarbga chidamli mustahkam shishasimon mahsulotlar olishga muvaffaq bo'lindi.

Bu tur mahsulotlar insonlar ehtiyojlarini qondirish maqsadida xalq xo'jaligi sohasida, jumladan, bino va inshootlarga ichki va tashqi bezak berishda, dizayn sohasida, chiroyli ko'rinishga ega bo'lgan basseyn va hovuzlar qurish sohasida, devorbop qoplamalar sifatida, tombop plitkalar sifatida va ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi(28).

Dizayn sohasidagi an'analar orasida shisha qoplamalarni qo'llash bugungi kunda eng so'ngi moda yangiliklaridan biri hisoblanadi. Bu bizga uy va xonalarini o'ziga xos va yagona nushada bezashga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida zarbga chidamli shishasimon mahsulotlar yaratildi. Bunday chiroyli va qulay plitkalar, yuz yuvish va hattoki yuvinish jihozlari ishlab

chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Pardozbop shisha plitkalarni qo'llash natijasida Germaniya dizaynerlari devor va pol yuzalarini bezashda o'ziga xos ko'rinish yaratadilar. Yaqin kunlarga shishasimon qoplamalar chidamsiz hisoblanadi va bezak qoplamalari sifatida bunday plitkalar kam ishlatiladi. Rossiyalik bir guruh olimlar tomonidan zarbga chidamli shisha mahsulotlari olish ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mustahkam shisha tarkiblari yaratiladi va 2012 –yilda Sank Peterburg shahrida bu shishasimon pardozbop plitkalar ishlab chiqarish zavodi yo'lga qo'yildi. Bunday qoplamalar havfsizligi va ko'p yillarga chidamliligi bilan ajralib turadi[29].

Hozirgi zamon ishlab chiqarish zavodlarida odatda pishirilgan shisha massa sovitilmasdan oldin uzoq toblash natijasida turli tashqi ta'sirlarga chidamli bo'lgan shishasimon plitkalar olinadi. Olingan shishasimon plitkalar suv, yuqori temperaturada va quyosh nuri ta'sirida o'z xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Shisha plitkalarni rangi oqarmaydi va xiralashmaydi, agar plitkalarga raasm tushirilgan bo'lsa, u holda xizmat muddati 800-1000 yilgacha bo'lishi mumkin. Bu tur plitkalarining yuza qismi tekis, gardli va toyg'inchoq emasligi hamda juda mustahkamligi sababli, unga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Agarda, plitkalar kuchli zarbga ta'sirida singanda ham bundan qo'rqishga asos yo'q, chunki bu qoplamalar singanda mayda bo'laklarga ajralib(huddi, transport oynalari singanidek) ketadi[30].

Shishasimon qoplamalargigiyana va amalda qo'llashga mosdir. Plitkalarni tozaligini saqlash uchun uni bemalol suv bilan (uni suv shimushganligi orolga tengligidan foydalanib) yuvish mumkin. Agarda shisha plitkalarni terish chog'ida unga chiroqlar montaj qilinsa, chiroqlar yoqilganda xona takrorlanmas o'ziga xos tus oladi [31].

